

THE ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH ANTHROPONYMIC COMPONENTS IN THE COGNITIVE SEMANTICS THEORY

Umarjon GOYIBOV

PhD student

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

KOGNITIV SEMANTIKA NAZARIYASIDA ANTROPONIMIK KOMPONENTLI FRAZEOLGIK BIRLIKLAR TAHLILI

Umarjon G'oyibov

Doktorant (PhD)

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С АНТРОПОНИМИЧЕСКИМИ КОМПОНЕНТАМИ В ТЕОРИИ КОГНИТИВНОЙ СЕМАНТИКИ

Умаржон ГОЙИБОВ

Докторант

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан umar.goyibov@mail.ru ORCID: 0009-0006-6941-0106

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

G'oyibov U. Kognitiv semantika nazariyasida antroponimik komponentli frazeologik birliklar tahlili. // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 3. — B. 84-113.

<https://doi.org/10.36078/1751020336>

Received: March 17, 2025

Accepted: June 17, 2025

Published: June 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Abstract. A phraseological unit is a stable word combination consisting of two or more words united under a single semantic meaning and able to provide information about different areas of human activity. In modern linguistics, the emphasis on studying phraseological units with onomastic components from a linguocognitive and linguocultural perspective has significantly increased. From a cognitive point of view, the semantic meaning of phraseological units with anthroponymic components is closely related to anthroponyms involved in their composition, and this semantic connection becomes evident through the linguistic activity of a person and their encyclopedic knowledge of anthroponyms. This encyclopedic knowledge comprises history, literature, culture, religion, folklore, myths and legends, and geography. When it comes to human encyclopedic knowledge, the onomastic components of phraseological units, and in our article anthroponyms, are important as an element that carries a clear cultural, historical, literary, political, social and religious information. The aim of this article is to determine the role of anthroponyms within the phraseological layer of such non-related languages as English and Uzbek in the concept formation, their conceptualization and categorization, as well as to reveal their complex encyclopedic and semantic peculiarities through frame analysis in cognitive semantics theory. It turns out that the cognitive aspect of phraseological units with an anthroponymic component in various systematic languages such as English and Uzbek, including frame-semantic analysis in our article in question, has not been sufficiently studied. Proceeding from this, this article acknowledges the potential of anthroponymic component

phraseological units to form specific concepts, their properties as complex semantic meaning, as well as their encyclopaedic nature.

Keywords: anthroponymic component; phraseological unit; encyclopedic information; frame analysis; conceptualization; categorization; associative meaning.

Annotatsiya. Frazеологик birlik — yagona semantik ma'no ostida birlashgan hamda inson faoliyatining turli sohaları haqida ma'lumot berish imkoniyatiga ega bo'lgan ikki yoki undan ortiq so'zlardan tashkil topgan turg'un so'z birikmalaridir. Hozirgi zamonaviy tilshunoslikda onomastik komponentli frazeologik birliklarni lingvokognitiv hamda lingvomadaniy nuqtayi nazardan o'rganishga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada o'sdi. Kognitiv nuqtayi nazardan, antroponimik komponentli frazeologik birliklarning semantik ma'nosi ularning tarkibida ishtirok etgan antroponimlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, mazkur ma'noviy bog'liqlik insonning lisoniy faoliyati hamda uning antroponimlar haqidagi ensiklopedik bilimi orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Mazkur ensiklopedik bilim esa o'z ichiga tarix, adabiyot, madaniyat, din, xalq ijodiyoti, afsona va rivoyatlar, geografiya kabilarni qamrab oladi. Inson ensiklopedik bilimi haqida so'z yuritilganda, frazeologik birliklarning onomastik komponentlari, mazkur maqolada esa antroponimlar, aniq bir madaniy, tarixiy, adabiy, siyosiy, ijtimoiy va diniy ma'lumotlarni tashuvchi element sifatida muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolaning maqsadi ingliz va o'zbek tillari kabi bir-biriga qardosh bo'lmagan tillar frazeologik qatlami tarkibidan joy olgan antroponimlarning muayyan konseptlarni hosil qilishidagi o'rni aniqlash, konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish hamda kognitiv semantika nazariyasidagi freym tahlili orqali ularning murakkab ensiklopedik hamda semantik xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Shunisi ayon bo'ldiki, ingliz va o'zbek tillari kabi turli tizimli tillarda antroponimik komponentli frazeologik birliklarning kognitiv aspekti, freym-semantik tahlili yetarlicha o'rganilmagan. Shundan kelib chiqqan holda, maqola chog'ishtirilayotgan tillarda antroponimik komponentli frazeologik birliklarning muayyan konseptlarni hosil qila olishidagi potentsialini, murakkab semantik ma'noga hamda ensiklopedik tabiatga egaligini e'tirof etadi.

Kalit so'zlar: antroponimik komponent; frazeologik birlik; ensiklopedik axborot; freym tahlil; konseptuallashtirish; kategoriyalashtirish; assotsiativ ma'no.

Аннотация. Фразеологизм — это устойчивое словосочетание, состоящее из двух или более слов, объединенных единым смысловым значением и способное дать информацию о различных сферах деятельности человека. В современной лингвистике значительно возрос акцент на изучении фразеологизмов с ономастическими компонентами с лингвокогнитивной и лингвокультурологической точек зрения. С когнитивной точки зрения семантическое значение фразеологизмов с антропонимическими компонентами тесно связано с антропонимами, входящими в их состав, и эта семантическая связь становится очевидной благодаря языковой деятельности человека и его энциклопедическим знаниям об антропонимах. Эти энциклопедические знания включают в себя историю, литературу, культуру, религию, фольклор, мифы и легенды, а также географию. Когда речь заходит об энциклопедических знаниях человека, ономастические компоненты фразеологизмов, а в нашей статье и антропонимов, важны как элемент, несущий четкую культурную, историческую, литературную, политическую, социальную и религиозную информацию. Целью данной статьи является

определение роли антропонимов во фразеологическом слое таких неродственных языков, как английский и узбекский, в формировании концептов, их концептуализации и категоризации, а также выявление их сложных энциклопедических и семантических особенностей с помощью фреймового анализа в теории когнитивной семантики. Получается, что когнитивный аспект фразеологизмов с антропонимическим компонентом в таких различных системных языках, как английский и узбекский, включая фреймово-семантический анализ в рассматриваемой нами статье, изучен недостаточно. Исходя из этого, в статье признается потенциал фразеологизмов с антропонимическим компонентом для формирования специфических концептов, их такие свойства, как сложное семантическое значение, а также энциклопедический характер.

Ключевые слова: антропонимический компонент; фразеологическая единица; энциклопедическая информация; фреймовый анализ; концептуализация; категоризация; ассоциативное значение.

Kirish

Tilshunoslikning kognitiv yoʻnalishida frazeologik birliklar inson xotirasida mavjud egallangan bilim, tajriba hamda axborotlarni tilda verballashtirish uchun ahamiyatga molik lisoniy vositalardan biri sifatida eʼtirof etiladi. Mazkur lisoniy birliklar oʻzida nafaqat kishining kundalik hayotidagi turli faoliyat turlarini aks ettiradi, balki muayyan xalqning kundalik turmush tarzi, madaniyati, adabiyoti, dini, tarixi, folklori, geografiyasi, siyosati toʻgʻrisida tom maʼnodagi takrorlanmas ensiklopedik maʼlumotlarni yetkazadi. Bundan tashqari, axborotning inson tomonidan idrok qilingan xilma-xil koʻrinishlari frazeologik birliklarda mujassamlashgan, yaʼni olamning frazeologik manzarasi ichki shaklida soʻzlovchining borliqqa emotsional-evaluativ munosabati ifodasi sifatida talqin qilinadigan axborot aks etadi. Ayniqsa, frazeologik birliklarning ensiklopedik tabiati ularning tarkibida ishtirok etgan onomastik komponentlar misolida yaqqol namoyon boʻladi.

Kognitiv nuqtayi nazardan frazeologik lugʻat kitoblaridan oʻrin olgan frazeologik birliklarning maʼnosi oʻz-oʻzidan paydo boʻlmagan, balki oʻsha kishining kundalik faoliyati va muayyan millatning ensiklopedik xazinasini yordamida hamda til taraqqiyoti bilan hamohang holda shakllangan deya qaraladi, shu bilan birgalikda, frazeologik birliklarning maʼnosi konseptual sistemamizda mujassamlashgan borliq haqidagi bilimlarimiz asosida shakllanadi. Darhaqiqat, frazeologik maʼno shakllanishida tarix, madaniyat, din, adabiyot, hayvonot va oʻsimlik dunyosi, geografiya, mashhur kishilarning biografiyasi singari ensiklopedik axborot beqiyos rol oʻynaydi, chunki ularsiz muayyan frazeologik birlikning maʼnosi hamda ularning tarkibida ishtirok etgan soʻz komponentlari oʻrtasidagi motivlashganlik darajasini ilgʻash qiyin.

Frazeologik birliklar inson ongida mazkur ensiklopedik axborotning muayyan sohasini aktivlashtiradi, shuning yordamida kishi mazkur frazeologik birliklarning maʼnosini yanada yaxshi anglab oladi. Boshqacha aytganda, tarix, adabiyot, din, madaniyat, geografiya, hayvonot va oʻsimlik dunyosi haqida bilimga ega boʻlgan kishi frazeologik maʼnolarni interpretatsiya qilishda qiyinchilikka duch kelmaydi. Shuning uchun ham frazeologik birliklarning maʼnosi kishining olam toʻgʻrisidagi egallagan

bilim darajasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, buni bevosita kognitiv tilshunoslik yo'nalishlaridan biri sanalmish kognitiv semantika nazariyasida izohlashga harakat qilamiz.

Kognitiv semantika nazariyasi frazeologik ma'nolarni interpretatsiya qilishda mazkur frazeologik birliklar yordamida ifodalangan bilim strukturalariga asoslanadi. Frazeologik ma'no kognitiv nuqtayi nazaridan ensiklopedik tabiatga ega bo'lib, o'zi qo'llaniladigan muayyan kognitiv kontekstlarga bog'liq holda ro'yobga chiqadi. Mazkur ma'noning ensiklopedik tabiati esa konsept yoki konseptual maydonlar deb atalmish keng ko'lamli bilim sohalariga yo'l ochib beradi. Bundan ko'rinib turibdiki, muayyan frazeologik birliklarning ma'nosi o'zi assotsiatsiyaga kirishadigan kognitiv kontekstdan mustaqil holda qo'llana olmaydi. Kognitiv tilshunoslikda mazkur kognitiv kontekstlar "freym", "skript", "ssenariy", "geshtalt", "mental maydonlar" singari turli atamalar bilan nomlanib [Safarov 2006: 33], ulardan "freym" atamasi kognitiv semantika nazariyasida keng qo'llaniladi.

Metodlar

Ingliz va o'zbek tillari frazeologik birliklari tarkibidagi antroponimlarning kelib chiqishini tavsiflash maqsadida etimologik tahlil qo'llanildi. Bunda har ikki til frazeologik birliklari tarkibidagi antroponimlar tarixiy voqea-hodisalar, diniy rivoyatlar, badiiy asar namunalari, xalq og'zaki ijodi durdonalari va afsonalari hamda ingliz va o'zbek xalqlarida tez-tez uchraydigan ismlardan kelib chiqqanligi tahlillar asosida aniqlandi.

Chog'ishtirilayotgan tillar antroponimik komponentli frazeologik birliklarining ma'noviy xususiyatlarini tavsiflash maqsadida semantik tahlildan unumli foydalaniladi. Mazkur tahlil yordamida nafaqat ularning qanday ma'nolarni anglatishi, balki mazkur semantik xususiyatlar frazeologik birliklar tarkibidagi antroponimlar bilan bevosita yoxud bilvosita assotsiatsiyaga kirishganligi ham voqelanadi.

Tilshunoslikning kognitiv yo'nalishida yangi tadqiqot metodlaridan biri sanalmish konsept tahlili yordamida chog'ishtirilayotgan tillar frazeologik birliklari tarkibidagi antroponimlar bilan bog'liq ensiklopedik axborot vositasida qanday konseptlarni hosil qilishi aniqlanadi. Shuning asosida ular bilan bog'liq aniqlangan semantik xususiyatlar hamda ensiklopedik axborot yordamida mazkur konseptlarni hosil qilishidagi ahamiyati anglashiladi.

Bundan tashqari, chog'ishtirilayotgan tillarda antroponimik komponentli frazeologik birliklarning murakkab ma'noviy-mazmuniy qurilishi, ensiklopedik tabiati hamda konseptual komponentlarini tavsiflash maqsadida freym tahlilidan unumli foydalanildi. Bunda mazkur frazeologik birliklar tarkibida ishtirok etgan antroponimlar ko'pincha freymning asosiy bosh komponentini tashkil etib, uning atrofida uyushgan boshqa konseptual elementlar mazkur antroponimning assotsiativ-ma'noviy xususiyatini namoyon qiladi.

Chog'ishtirilayotgan tillar antroponimik komponentli frazeologik birliklarining etimologik kelib chiqishi, semantik xususiyatlari hamda konseptosferasidagi o'xshash hamda farqli jihatlarini tavsiflash maqsadida qiyosiy-chog'ishtirma tahlildan unumli foydalanildi. Bunda ingliz va o'zbek tillaridagi mazkur frazeologik birliklarning farqli jihatlarini o'xshash

jihatlariga qaraganda ko‘p bo‘lishi tabiiy ekanligi voqelanadi. Ingliz va o‘zbek tillari antroponimik komponentli frazeologik birliklarining konseptosferasidagi farqli jihatlarining mavjudligi har ikkala tilni bir-biridan ajratib turadi, lekin shunga qaramay, o‘xshash jihatlarining mavjudligi har ikkala xalqni birlashtirib turuvchi mushtarak tomonlari borligidan darak beradi.

Natijalar

Kognitiv semantika nazariyasida muayyan til yoki turli tizimli tillardagi frazeologik birliklar tahlili Y. V. Ridjkina [Ridjkina 2003], Z. M. Safina [Safina 2004], A. V. Tuarmenskaya [Tuarmenskaya 2006], Y. V. Ivanova [Ivanova 2003], Y. S. Konovalova [Konovalova 2012] kabi olimlar ishlarida kuzatiladi. Jumladan, o‘z izlanishlarida olimlar ingliz tilidagi hamda u bilan qiyoslangan boshqa tillardagi frazeologik birliklar semantik xususiyatlarining kognitiv aspektida talqin qilinishi, konseptual tahlili, konseptuallashtirilishi hamda kategoriyalashtirilishi singari masalalarini yoritishga harakat qilishgan.

Tilshunoslikning kognitiv yo‘nalishidagi freym semantika nazariyasida ingliz tilidagi hamda u bilan qiyoslangan boshqa tillardagi frazeologik birliklar tahlili A. M. R. Lopez [Lopez 2002], Y. V. Golubayeva [Golubayeva 2006], T. P. Filichkina [Filichkina 2006], O. B. Abakumova [Abakumova 2013], Y. V. Obotnina [Obotnina 2006], Y. A. Geras [Geras 2009] kabi olimlar ishlarida kuzatiladi.

Rus va ingliz tillaridagi fe‘l frazeologizmlarning semantikasidagi deontik normalari bo‘yicha izlanish olib borgan T. P. Filichkinaning ta‘kidlashicha, fe‘l frazeologizmlarning semantikasi borliqdagi stereotipik situatsiyalar hamda mazkur situatsiyalarda insonning tutgan yurish-turish normalari haqidagi ma‘lumot “paketi”ni qamrab oladi [Filichkina 2006: 5]. Mazkur ma‘lumot esa olam konseptual manzarasining bir qismi hisoblangan jamiyatning kognitiv bazasida saqlanadi. Bundan tashqari, frazeologik birliklar presedentlik hodisasiga ega bo‘lib, u muayyan manbalardagi matnlarda bayon etilgan stereotipik situatsiyalarga ishora qiladi. Stereotiplar odatda konseptlar doirasida shakllanib, olamning ham lisoniy, ham konseptual manzarasiga nisbat berilishi mumkin.

Kinetika konsept-freymining ingliz tilidagi fe‘l va fe‘lli birikmalar orqali bevosita va majoziy ifodalanishi bo‘yicha izlanish olib borgan Y. V. Golubayeva, Y. I. Trubayeva va T. A. Pereligina kabi tadqiqotchilar **Imo-ishora** freymini hosil qiluvchi asosiy atribut komponentlari sifatida so‘zlovchi, tinglovchi, xabar, tana a‘zosi va muayyan mohiyatni sanab o‘tsa, ixtiyoriy atribut komponentlari sifatida usul, vosita, joy va vaqtni ko‘rsatib o‘tadi [Golubayeva, Trubayeva & Perelygina 2020: 148]. Mazkur konsept-freymini hosil qiluvchi fe‘lli birikmalar sifatida *take off one’s hat*, *hold thumbs*, *turn thumbs down*, *cross fingers*, *nod in agreement* kabilarni kiritadi. Bunda muayyan fe‘lli birikmaning ma‘nosi uning tarkibida ishtirok etgan asosiy so‘z komponentiga asoslanadi hamda bir-birini taqozo etadigan, bir-biri bilan uzviy bog‘liq konseptual tuzilmalardan iborat **Imo-ishora** freymini hosil qiladi. Masalan, *nod in agreement* fe‘lli birikmaning tarkibidagi *nod* komponenti kelishuv, salomlashuv, biror tomonni imo-ishora orqali ko‘rsatish, xabar berish kabi semalarni mujassamlashtiradi.

Ingliz tilidagi frazeologik birliklar ichki shakllari ifodalanishining kognitiv modellari hamda ularning muayyan matnlarda qo'llanilishining freymi bo'yicha izlanish olib borgan Y. V. Obotnina o'z tadqiqot ishida freymni muayyan frazeologik birliklar orqali ifodalangan borliq haqidagi yaxlit umumlashma deya izohlaydi [Obotnina 2006: 20]. Mazkur frazeologik birliklar esa ana shu yaxlit umumlashma bilan chambarchas bog'liq holda ma'nolari, funksional va kognitiv potentsiali hamda ichki shakli ro'yobga chiqadi.


Ingliz va o'zbek tillarida antroponimik komponentli frazeologik birliklarning semantik klassifikatsiyasini ishlab chiqqan S. T. Xudoyorova mazkur frazeologik birliklarni semantik jihatdan ikki katta guruhga ajratadi, shu jumladan, inson fazilati, yurish-turishi va xatti-harakatlari bilan bog'liq antroponimik komponentli frazeologik birliklar hamda narsa-predmetlar, voqea-hodisalar va ichimliklar bilan bog'liq antroponimik komponentli frazeologik birliklar [Khudoyorova 2020]. Bunda birinchi guruhga mansub frazeologik birliklarning ma'nolari o'z tarkibidagi antroponimlar bilan bevosita bog'liq holda yuzaga chiqsa, ikkinchi guruhga mansub frazeologik birliklarning ma'nolari o'z tarkibidagi antroponimlar bilan bilvosita bog'liq holda shakllanadi, ya'ni mazkur frazeologik birliklar ma'nosining hosil bo'lishi o'z tarkibidagi antroponimlarning yurish-turishi, xatti-harakati, esda qolarli belgilari kabi ensiklopedik axborotiga asoslanadi.

Allyuziv antroponimlarning badiiy konsept sifatidagi freym strukturasi bo'yicha izlanish olib borgan O. V. Tomberg hamda M. A. Ananyina kabi tadqiqotchilarning ilmiy natijalariga ko'ra, badiiy matndagi allyuziv antroponimlarning freym tahlili jarayonida o'zining bir necha konseptual komponentlariga ega bo'ladiki, ular nafaqat matn freymini, balki muallifning dunyoqarashi hamda badiiy manzarasini ifodalaydi. Bunda mazkur allyuziv antroponimlarning freym strukturasi konseptual komponentlari sifatida freym nomi, harakat vaqti, harakat joyi, freym subyekti, obyektlar orasidagi munosabat, harakat qatnashuvchilari kabi ensiklopedik axborot ko'rsatiladi [Tomberg & Ananyina 2024: 564]. Bundan kelib chiqadiki, ingliz va o'zbek tillarida antroponimik komponentli frazeologik birliklar tarkibidagi antroponimlarning freym tahlilida ular bilan bog'liq ensiklopedik axborotga asoslanib, bir-birini taqozo etuvchi muayyan konseptual komponentlar aniqlanadi va buning asosida mazkur frazeologik birliklarning semantikasi kognitiv nuqtayi nazaridan murakkab tabiatga ega ekanligi e'tirof etiladi.

Muhokama

Freym — birgalikda harakatlanadigan va bir-birini taqozo etadigan mantiqiy idrok elementlarining o'zaro munosabati asosida yuzaga keladigan ko'p qismli va ko'p tabaqali kognitiv tuzilma, boshqacha aytganda, muayyan tushuncha atrofida uyushgan bilimlarning mazmuniy birligidir [Xudoyberganova 2024: 25]. Freym faqatgina kishining borliqni bilish faoliyati hamda tajribalarini tashkillashtirish vositasi bo'lib qolmasdan, balki leksik birliklar ma'nolarini tavsiflash hamda tushuntirish vositasi ham sanaladi [Efimova 2022: 271]. Mazkur nazariya alohida leksik birlik va so'z birikmalarining ma'nosi hamda grammatik kategoriya va shakllardan tashqari, frazeologik birliklarga ham tatbiq etilishi mumkin

[Lopez 2002]. Unda frazeologik birliklarning ma'nosi bir-biriga chambarchas bog'langan hamda bir-birini taqozo etadigan muayyan konseptual tuzilmalar vositasida yaqqol namoyon bo'ladi, ushbu ma'no esa o'z takibida ishtirok etgan asosiy so'z komponentiga asoslanadi. Masalan, amalga oshmaydigan tilak ma'nosini anglatuvchi ingliz tilidagi *pie in the sky* frazeologik birligini olaylik. **Sarob** freym-konseptini hosil qiluvchi mazkur frazeologik birlikning atributlarini hosil qiluvchi elementlarni quyidagi chizma orqali ko'rishimiz mumkin:



1-rasm. "Pie in the sky" — frazeologik birligining freym tahlili

Mazkur frazeologik birlik tarkibida ishtirok etgan *pie* (pirog) so'zi majoziy ma'noda xohish-istak, maqsad va tilakni, *sky* (osmon) so'zi esa mavhumlik, haqiqatdan yiroqlikni mujassamlashtiradi. Xohish-istakning amalga oshmasligi umidsizlikka olib keladi hamda sarobga aylanadi. Mazkur frazeologik birlik ma'nosining atributlari sifatida umidsizlik, achchiq haqiqat, xafsalasizlik va mavhumlik kabi konseptual komponentlar aniqlanadi. Shunday qilib bir-birini taqozo etuvchi mazkur atributlar yig'indisi amalga oshmaydigan orzu-niyatni konseptuallashtiradi.

D. Xudoyberganovanning "Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da ta'riflanishicha, kognitiv semantika — inson tomonidan obyektiv borliq qay tarzda qabul qilinishi va idrok etilishi hamda uning bilish tajribasi lisoniy birliklar orqali qay tariqa voqelanishini tadqiq etuvchi nazariy yo'nalish, konseptuallashtirish va kategoriyalashtirishning umumiy nazariyasi sifatida ta'riflanadi. Konseptuallashtirish — bu insonning bilish faoliyati — uzatilayotgan axborotni idrok etishga yo'naltirilgan va inson miyasida konseptlar, konseptual tuzilmalar va barcha konseptual tizimlarning hosil bo'lishini ta'minlaydigan jarayon, kategoriyalashtirish esa voqelikning kognitiv bo'linishi, butun ontologik makonni turli kategorial sohalarga ajratish hisoblanadi [Xudoyberganova 2024: 34–35, 42].

An'anaviy semantikadan farqli ravishda kognitiv semantika nazariyasida frazeologik birliklar shunchaki til hodisasi bo'lib qolmasdan, balki inson mental faoliyatining natijasi, uning obyektiv borliqni bilish mahsuli sifatida qaraladi. Kognitiv semantika nazariyasi frazeologik birliklarning konseptual tabiati, ularning inson bilimlar to'plami hamda tajribasidan iborat konseptual strukturasi bilan aloqasi kabi masalalar bilan shug'ullanadi. Inson obyektiv borliqni bilishda uning mental jarayonlari faol ishtirok etib, kognitiv mexanizmlar sifatida tilni tashqi dunyo bilan

uzviylikda o'rganadi, ushbu jarajonda insonning psixologik omillari ham muhim ahamiyat kasb etadi, shuning uchun ham kognitiv semantika nazariyasi frazeologik birliklarning ma'nosini inson bilim va tajribasi bilan, uning ensiklopedik ma'lumoti bilan bog'lab o'rganadi.

Kognitiv semantika nazariyasi frazeologik birliklar bilan inson konseptual tizimi o'rtasidagi bog'liqlikka alohida e'tibor qaratadi. Frazeologik birliklarning ma'nosi muayyan sharoitlarda inson obyektiv borliqni anglash mahsuli ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu jarayon esa so'zlovchining ensiklopedik bilimi va madaniy qatlamiga asoslanadi hamda ular inson konseptual tizimida mujassamlashtiriladi. Inson obyektiv borliqni anglagani va bilgani sari ular mental faoliyati yordamida tashqi dunyoni konseptuallashtiradi hamda kodlashtiradi. Kognitiv semantika nazariyasida frazeologik birliklar — konseptuallashtirish jarayoni mahsuli ekanligi ta'kidlanadi [Ying & Yan 2020]. Mazkur jarayon axborotning integrallashuvi va mustahkamlanishiga asoslangan relyatsional tafakkur va mavhumlashtirish kabi yuksak ongli faoliyat bilan bog'liq kognitiv jarayonlarni hamda borliq haqidagi mavhum tushunchalarni tahlil qiladi hamda u konsept bilan chambarchas bog'liq holda o'z ichiga muayyan bilim sohasi bilan assotsiatsiyalashtirilgan hodisalarning fundamental mohiyatini qamraydi [Cocchiarella 2007: 21]. Ushbu konsept esa tafakkur doirasidan tashqari holatda o'z ma'nosiga ega bo'lishi yoki ifodalanishi mumkin emas, u tilda o'z aksini topishi zarur. Masalan, ingliz tilidagi *Janus-faced*; *A Judas kiss*; *An Uriah Heep* hamda o'zbek tilidagi *Ishni Ismat qiladi*, *lofni Toshmat uradi*; *Qimorboz boy berganda Jamshidni yodlar*, *boy bo'lganda qochishni*; *Suvdan o'tguncha yo Bahovuddin*, *suvdan o'tgach qoch Bahovuddin* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklar **Munofiqlik** konseptini hosil qiladi, chunki ularning tarkibida ishtirok etgan antroponimlar bilan bog'liq ensiklopedik ma'lumotga nazar tashlasak, ular ikkiyuzlamachilik bilan ish tutganini, ba'zilar esa samimiyatsizlik bilan bog'liq salbiy konnotatsiya bilan assotsiatsiyaga kirishganligiga amin bo'lamiz.


Kognitiv semantika yo'nalishi semantikani mazmuniy qurilish va bilimlar ifodasidan iborat ikki sathdan tashkil topadi [Xudoyberganova 2024: 35] deb hisoblashini inobatga olgan holda chog'ishtirilayotgan tillarda antroponimik komponentli frazeologik birliklarni konseptuallashtirish va kategoriyalashtirishda ularning assotsiativ ma'noviy xususiyatlari hamda ularda ensiklopedik axborot beruvchi komponent sifatida ishtirok etgan antroponimlari kabi ikki sathiga e'tibor qaratdik. Mazkur antroponimlar mujassamlashtiruvchi ismga ega bo'ladiki, kishi ongida muayyan bir g'oyalar, assotsiatsiyalar hamda ensiklopedik ma'lumotlarni qo'zg'atuvchi murakkab konseptual tuzilma bilan xarakterlanadi [Ashurova & Galiyeva 2018: 54]. Shu bilan birgalikda, S. T. Xudoyorovanning yuqorida eslatib o'tilgan mazkur semantik klassifikatsiyasiga asoslanib ish olib bordik.

Tahlilimiz natijasida ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar tarkibida ishtirok etgan antroponimlar bilan bog'liq qomusiy axborotni inobatga olgan holda ularni quyidagicha konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish mumkin.

Xulq-atvor kategoriyasiga mansub antroponimlar sifatida ingliz tilida *Lady Bountiful*, *Mark Tapley*, *Ned Kelly*, *Job*, *Joe*, *Minnie*, *Thomas*, *Artful Dodger*, *Adam*, o'zbek tilida *Vali*, *Hotam*, *Ismat*, *Toshmat*,


Abdullatif, Iskandar kabilar aniqlandi. Ular kishining ijobiy fazilatlari hamda salbiy xislatlarini namoyon qilib, ingliz tilida *Lady Bountiful*; *A Mark Tapley*; *As game as Ned Kelly*; *As patient as Job*; *Good Joe*; *Moaning Minnie*; *A doubting Thomas*; *An Artful Dodger*; *The old Adam*; *A Job's comforter*, o'zbek tilida esa *Har kim o'z aybini bilsa Vali bo'ladi*; *Borida — Hotam, yo'g'ida motam*; *Ishni Ismat qiladi, lofni Toshmat uradi*; *Padarkush Abdullatif*; *Iskandar xo'ja, bulturgi jo'ja, bola ochadi, tashlab qochadi* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o'z ifodasini topdi.

Mazkur kategoriyaga mansub ingliz tilidagi *Lady Bountiful* frazeologik birligi tarkibidagi antroponim quyidagi murakkab bilimlar majmuyidan iborat: 1) fazilati — boshqalarga yaxshilik ulashuvchi, xayrixohlik bildiruvchi saxiy ayol kishi; 2) adabiyot — XVIII asr irland dramaturgi Jorj Farkuarning “*Beaux Stratagem*” nomli pyesasi; 3) obraz — ijtimoiy mavqeyi jihatidan o'ziga to'q va boy ayol kishi; 4) faoliyati — dorivor o'simliklar mutaxassisi. Mazkur bilimlar majmuyi bir-birini bilan bog'liqligini hamda ushbu frazeologik birlikning ma'nosi unga asoslanishini esa quyidagi freym tahlili orqali kuzatish mumkin:



2-rasm. “*Lady Bountiful*” — frazeologik birligi tarkibidagi antroponimning freym tahlili

O'zbek tilidagi *Borida — Hotam, yo'g'ida motam* antroponimik komponentli frazeologik birligi borida bisotini tejamay sarflab, tez kunda tugallaydigan va buning oqibatida noiloj bo'lib qoladigan kishilarga nisbatan ishlatiladi. Biroq uning mazkur salbiy konnotatsiyasiga qaramay, o'z tarkibida ishtirok etgan *Hotam* antroponimi bevosita Sharq mamlakatlarida saxiyligi va oliyjanoblighi bilan dong taratgan shaxs hisoblanib, Sharq xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotlarda u haqida ko'plab afsona va rivoyatlar yaratilgan. Mazkur frazeologik birlikning ma'nosi ham tarkibidagi antroponim bilan bog'liq ensiklopedik ma'lumotga asoslanishini quyidagi freym tahlil orqali ko'rish mumkin:




3-rasm. “Borida Hotam — yo‘g‘ida motam” — frazeologik birligi tarkibidagi antroponimning freym tahlili

Ingliz va o‘zbek tillaridagi har ikkala frazeologik birlik ham **Saxovat** konseptini hosil qilib, kishi ongida hech kimdan narsasini ayamaydigan, qo‘li ochiq inson assotsiativ ma’nosini faollashtiradi.


Intellekt kategoriyasiga mansub antroponimlar sifatida ingliz tilida *Daniel, Cocker, Crichton*, o‘zbek tilida *Aflotun, Hasan, Husan* kabilar aniqlandi. Ular kishining aqliy salohiyatini namoyon qilib, ingliz tilida *A Daniel come to judgement; According to Cocker; The admirable Crichton*, o‘zbek tilida esa *Aflotun miya; Aql — Hasan, odob — Husan* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o‘z aksini topdi.

Mazkur kategoriyaga mansub tarkibida tarixiy antroponim ishtirok etgan ingliz tilidagi *The Admirable Crichton* frazeologik birligi keng fikrli, aql-zakovatli va uzoqni ko‘ra oladigan hamda barcha fanlardan xabardor shaxsni tasvirlab keladi. Mazkur frazeologik birlik nega aynan keng fikrli, aql-zakovatli, barcha fanlardan xabardor shaxsni tasvirlab kelishini uning tarkibida ishtirok etgan *Crichton*, ya’ni Krayton antroponimi bilan bog‘liq ensiklopedik ma’lumotga nazar solamiz. Jeyms Krayton 1560-1582-yillarda yashagan shotlandiyalik serqirra bilim sohibi ekanligi tarixdan ma’lum. Uning har jihatdan bilimli shaxs ekanligiga asoslanib, quyidagi konseptual komponentlarga ega bo‘lamiz: 1) bilimi — o‘n va o‘n to‘rt yoshlarida bakalavr hamda magistr dasturlarini o‘qib bitirgan; 2) yutuqlari — til, san’at va ilm-fan sohalarida erishgan aql bovar qilmas darajadagi yutuqlari tufayli dong taratgan; 3) atributi — takrorlanmas iste’dod; 4) adabiyot — uning mazkur takrorlanmas iste’dodi tufayli Semyuel Jonson, Charlz Dikkenz, Vilyam Tekkerey, Jeyms Berri kabi taniqli adiblar o‘z asarlarida uni *The Admirable Crichton* sifatida tanitgan. Mazkur konseptual komponentlar birligini quyidagi freym tahlil orqali kuzatish mumkin:



4-rasm. “The Admirable Crichton” — frazeologik birligi tarkibidagi antroponimning freym tahlili

Tarkibida tarixiy antroponim ishtirok etgan o‘zbek tilidagi *Aflotun miya* frazeologik birligi bilimdon, juda aqlli va donishmand kishini tasvirlaydi. Tarixdan ma’lumki, Aflotun miloddan avvalgi V–IV asrlarda yashagan qadimgi yunon faylasufi, serqirra bilim sohibi hamda donishmand sanalib, aynan mana shu jihatlari orqali quyidagi konseptual komponentlarga ega bo‘lamiz: 1) faoliyati — ustozli Suqrot va shogirdi Arastu bilan birgalikda Aflotun G‘arb madaniyatini shakllantirgan, Afinadagi ilk akademiyaga, falsafa sohasida platonizm g‘oyasiga asos solgan; 2) bilimi — pedagogika, adabiyot, falsafa fanlarini chuqur o‘zlashtirgan; 3) atributi — “ilohiy ustoz”, xristian dunyoqarashining muboshiri, sof sevgi faylasufi va siyosiy xayolparast sifatida tanilgan. Mazkur konseptual komponentlar bir-birini bevosita taqozo qilishini quyidagi freym tahlil orqali kuzatish mumkin:




5-rasm. “Aflotun miya” — frazeologik birligi tarkibidagi antroponimning freym tahlili

Ingliz va o‘zbek tillaridagi har ikkala frazeologik birlik ham **Intellekt** konseptini hosil qilib, kishi ongida aql-zakovatli, serqirra bilim sohibi, donishmand inson assotsiativ ma’nosini faollashtiradi.

Qobiliyat kategoriyasiga mansub antroponimlar sifatida ingliz tilida *Ulysses*, *Cordelia*, *Hercules*, *Midas* kabilar aniqlandi. Ular kishining o'ziga xos qobiliyatini namoyon qilib, ingliz tilida *Bend the bow of Ulysses*; *Cordelia's gift*; *Herculean task*; *The Midas touch* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o'z ifodasini topdi. O'zbek tilida esa bunday kategoriyaga mansub misollar aniqlanmadi.

Mazkur kategoriyaga mansub tarkibida mifologik antroponim ishtirok etgan ingliz tilidagi *The Midas touch* frazeologik birligi zamonaviy tilshunoslikda har qanday soha yoki faoliyatdan pul ishlab olish qobiliyati ma'nosini anglatadi, uning dastlabki ma'nosi esa har narsaga qo'l tekkizib oltinga aylantirish qobiliyatini bildirgan. Midas obrazi bilan bog'liq qadimgi yunon mifologiyasini hikoya qilib bergan Ovidiyning "Evrilishlar" dostoni [Kun 2005: 35]ga ko'ra, u har narsaga qo'lini tekkizgani hamon oltinga aylantira olgan. Uning mazkur qobiliyati orqali quyidagi konseptual komponentlarga ega bo'lamiz: 1) obraz — Frigiya podshohi; 2) xatti-harakati — Silenga ko'rsatgan ehtiromi tufayli ma'bud Dionis Midasga qanday sovg'a tanlashni havola etadi; 3) istagi — Midas esa qo'li tekkan narsa yaltiroq sof oltinga aylanishini istaydi va bu istak bajo keltiriladi; 4) atributi — Midasning qo'li tekkan narsa oltinga aylanishi tufayli uning bunday qobiliyati, keyinchalik, *golden touch* yoki *Midas touch* sifatida tilga olina boshlangan. Mazkur konseptual komponentlar umumlashmasini quyidagi freym tahlil orqali kuzatish mumkin:




6-rasm. "The Midas touch" — frazeologik birligi tarkibidagi antroponimning freym tahlili

Ruhiyat kategoriyasiga mansub antroponimlar sifatida ingliz tilida *Larry*, *Willie*, *Punch* kabilar aniqlandi. Ular *As happy as Larry*; *Weary Willie*; *As proud as Punch* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o'z ifodasini topdi. O'zbek tilida esa bunday kategoriyaga mansub misollar aniqlanmadi.

Mazkur kategoriyaga oid ingliz tilidagi *Weary Willie* antroponimik komponentli frazeologik birligi g'amgin, ruhiyati tushkun va umidsiz kishilarni tasvirlaydi. Ushbu frazeologik birlik aynan bunday toifadagi kishilarni tasvirlab keladi, chunki *Weary Willie* antroponimi amerikalik sirk ijrochisi Emmet Kellining yaratgan obrazi bo'lib, u ma'yus masxaraboz, jamiyatdan chetlatilgan, pessimist, juldur kiyimli, soqoli


o'sgan sifatida tavsiflanadi. Mana shu tavsifga turtki bo'lgan sabab esa 1930-yillardagi Buyuk Depressiya davridagi vaziyat hisoblanadi. Mazkur tarixiy ensiklopedik ma'lumotga asoslangan holda ushbu frazeologik birlik tarkibida ishtirok etgan antroponimning obraz, tavsif hamda vaziyat singari konseptual komponentlarga ega bo'lamiz hamda ularning jamuljamligini quyidagi freym tahlil orqali kuzatish mumkin:



7-rasm. "Weary Willie" — frazeologik birligi tarkibidagi antroponimning freym tahlili


His-tuyg'u kategoriyasiga mansub antroponimlar sifatida ingliz tilida *George*, *Mrs Grundy*, *Sam*, o'zbek tilida *Jabbor*, *Xizr*, *Muhammad* kabilar aniqlandi. Ular kishining hayratlanish, hayajonlanish, achchiqlanish, xavotirlanish, rozilik va norozilik, zavqlanish, istak, undash va boshqa shu kabi his-tuyg'ularini namoyon qilib, ingliz tilida *By George*; *What will Mrs Grundy say?*; *Play it again, Sam*, o'zbek tilida esa *Jabbor chalsin seni*; *Xizrni yo'qlasam bo'larkan*; *Muhammad payg'ambar madadkor bo'lsin* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o'z ifodasini topdi.

Mazkur kategoriyaga mansub tarkibida diniy antroponim ishtirok etgan ingliz tilidagi *By George* frazeologik birligi kishining ajablanish, hayratlanish, achchiqlanish, afsuslanish, ishonch, tilak kabi turli hissiyotlarini tasvirlab keladi. Ma'lumki, *Saint George*, ya'ni avliyo Jorj antroponimi xristian dini homiysi hisoblanadi. 19-asr oxirida askarlar odatda biror ibora bilan qasamyod qilib jangga kirishardi, ana shu qasamyodni ifodalovchi evfemistik ibora sifatida mazkur avliyo ismidan foydalanishardi. Keyinchalik esa ingliz xalqi mazkur evfemistik iboradan o'z his-tuyg'ularini bevosita ifodalash uchun qo'llay boshlaydi. Ushbu ensiklopedik ma'lumotlarga asoslangan holda *By George* frazeologik birligi tarkibida ishtirok etgan antroponim bilan bog'liq ingliz xalqi, xristian dini homiysi, leksikografiya, his-tuyg'ular singari konseptual komponentlarga ega bo'lamiz hamda ularning bir-biriga bog'liqligini quyidagi freym tahlil orqali kuzatish mumkin:



8-rasm. “By George!” — frazeologik birligi tarkibidagi antroponimning freym tahlili

Tarkibida diniy antroponim ishtirok etgan o‘zbek tilidagi *Xizrni yo‘qlasam bo‘larkan* frazeologik birligi kimnidir ko‘rish istagi qo‘qqisidan paydo bo‘lganda ishlatiladi. Ma’lumki, *Xizr* antroponimi diniy adabiyotlarda tilga olingan payg‘ambarlardan biri bo‘lib, u haqida naql qilingan rivoyatlarga asoslangan holda quyidagi konseptual komponentlarga ega bo‘lamiz: 1) e’tiqodiy tushuncha — falokatga yo‘liqqanlarni halokatdan qutqaramish, dehqonlar hosiliga baraka ato qilarmish, kimki uni uchratib qolsa, baxtli va boy bo‘larmish; 2) e’tiqodchilar amallari — shuning uchun e’tiqodchilar uni bir ko‘rsam degan niyatda xayr-ehsonlar, sadoqat va ibodatlar qilib yurardilar; 3) leksikografiya — keyinchalik esa kimnidir ko‘rish istagi to‘satdan paydo bo‘lganda uning ismini tilga olishadi. Mazkur konseptual komponentlar birligini quyidagi freym tahlil orqali kuzatish mumkin:




9-rasm. “Xizrni yo‘qlasam bo‘larkan” — frazeologik birligi tarkibidagi antroponimning freym tahlili

Ingliz va o‘zbek tillaridagi har ikkala frazeologik birlik ham **His-tuyg‘u** konseptini hosil qilib, kishi ongida insonning ajablanish, hayratlanish, achchiqlanish, afsuslanish, ishonch va tilak kabi turli hissiyotlarini faollashtiradi.

Tashqi ko‘rinish kategoriyasiga mansub antroponimlar sifatida ingliz tilida *Beau Brummell*, *Tom Thumb*, *Vandyke*, *Billy Bunter*, o‘zbek tilida *Ashir* kabilar aniqlandi. Ular kishining o‘ziga xos tashqi ko‘rinishi va

jismoniy holatini tasvirlab keladiki, ingliz tilida *A Beau Brummell*; *Tom Thumb*; *Vandyke beard*; *Billy Bunter* hamda o'zbek tilida *Ashir tarnov* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o'z ifodasini topdi.

Mazkur kategoriyaga mansub tarkibida badiiy antroponim ishtirok etgan ingliz tilidagi *Billy Bunter* frazeologik birligi badiiy asarda tasvirlangan semizgina ziqna bolakay o'smirni tasvirlab keladi. Mazkur frazeologik birlik tarkibida ishtirok etgan antroponim quyidagi murakkab konseptual komponentlarga ega: 1) adabiyot — Frenk Richards taxallusi ostida ijod qilgan yozuvchi *Billy Bunter* obrazini yaratadi; 2) dastlabki paydo bo'lishi Kentdagi Greyfayers ingliz xalq badiiy maktabida nashr qilinayotgan "The Magnet" nomli haftalik jurnal; 3) tavsifi — maktab o'quvchisi, ziqna, o'ziga bino qo'ygan, semiz, dangasa, hiylakor — mazkur xislatlar Jerald Kempyon tomonidan tavsiflanadi. *Billy Bunter* obrazining tashqi ko'rinishiga berilgan tavsifiga asoslangan holda mazkur konseptual komponentlar umumlashmasini quyidagi freym tahlil orqali kuzatish mumkin:




10-rasm. "Billy Bunter" — frazeologik birligi tarkibidagi antroponimning freym tahlili

Faoliyat kategoriyasiga mansub antroponimlar sifatida ingliz tilida *Tom Tailor*, *Jack Ketch*, *Pooh Bah*, *G. I. Jane*, *Jack*, *Mother Bunch*, *Friday* kabilar aniqlandi. Ular kishining mehnat faoliyati, muayyan yumushi, kasb-korlarini tasvirlab keladiki, ingliz tilida *Tom Tailor*; *Jack Ketch*; *Pooh Bah*; *G. I. Jane*; *Cheap Jack*; *Jack at a pinch*; *Mother Bunch*; *A girl Friday*, o'zbek tilida esa *Kelinlik Bedilxonlikdan* qiyin kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o'z ifodasini topdi.

Mazkur kategoriyaga mansub tarkibida tarixiy antroponim ishtirok etgan ingliz tilidagi *Jack Ketch* frazeologik birligi jallod, dorga osuvchi va qatl qiluvchi kishini tasvirlab keladi. Mazkur tavsifdan uning tarkibida ishtirok etgan antroponim salbiy konnotatsiyaga ega ekanligi ayon bo'ladi hamda quyidagi murakkab konseptual komponentlardan tarkib topadi: 1) lavozimi — jallod, XVII asrda Angliyada yashagan, mazkur lavozimga Qirol Charlz II tomonidan tayinlangan; 2) xatti-harakati — Vilyam Russel,


Lord Russel, Jeyms Skott va boshqa taniqli siyosiy arboblarni qatl qilgan; 3) atributi — o‘lim, iblis va shafqatsiz jallodlarni tipiklashtiruvchi obraz sifatida gavdalanadi. Ushbu konseptual komponentlar jamuljamligidan uning berahm qotil, shafqatsiz jallod ekanligini quyidagi freym tahlil orqali kuzatish mumkin:



11-rasm. “Jack Ketch” — frazeologik birligi tarkibidagi antroponimning freym tahlili

Laqab kategoriyasiga mansub antroponimlar taniqli kishilarning o‘ziga xos xislatini namoyon qilib, ingliz tilida *The Father of English poetry*; *The Father of English printing*; *The Virgin Queen*; *The Great Unknown*; *The Father of His Country*; *Old Nosey*; *A Green Beret* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o‘z ifodasini topdi. O‘zbek tilida esa bunday kategoriyaga mansub misollar kuzatilmadi.


Mazkur kategoriyaga mansub ingliz tilidagi *The Father of English poetry* antroponimik komponentli frazeologik birligi ingliz she‘riyati asoschisi, buyuk shoir Geoffrey Choserning laqabi bo‘lib, u ingliz she‘riyatida ayembik pentametr qofiya uslubini yaratgan. Mazkur laqab sohibi Geoffrey Choser nega aynan ingliz she‘riyati otasi deya e‘tirof etilganini uning ingliz adabiyotiga qo‘shgan sezilarli hissasi orqali bilishimiz mumkin. Uning adabiy faoliyatini inobatga olgan holda quyidagi konseptual komponentlarga ega bo‘lamiz: 1) faoliyati — XIV asr Angliya qirolligida yashagan shoir, yozuvchi, faylasuf, diplomat; 2) adabiy faoliyati — “The Canterbury Tales” shoh asarini yaratgan, she‘riyatda ayembik pentametr qofiya uslubini yaratgan; 3) lisoniy faoliyati — Middle English dialektining rivojiga katta hissa qo‘shgan; 4) atributi — Tomas Okklev uni “ingliz she‘riyatida birinchi bo‘lib o‘ziga xos uslub yaratgan shoir” deya ta‘riflagan. Shunday qilib, mazkur konseptual komponentlar jamuljamligi yordamida *The Father of English Poetry* frazeologik birligining ma‘nosi yanada oydinlashadi:



12-rasm. “The Father of English poetry” — frazeologik birligi tarkibidagi antroponimning freym tahlili

Ijtimoiy munosabat kategoriyasiga mansub antroponimlar sifatida ingliz tilida *Damon*, *Pythias*, *Anne*, *Jack*, *Jill* o‘zbek tilida *Hasan*, *Qo‘chqor* kabilar aniqlandi. Ular ingliz tilida *Damon and Pythias*; *Sister Anne*; *A good Jack makes a good Jill*, o‘zbek tilida esa *Hasan aka quysin*, *Qo‘chqor aka ichsin* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o‘z ifodasini topdi.

Mazkur kategoriyaga mansub tarkibida mifologik antroponim ishtirok etgan ingliz tilidagi *Damon and Pythias* frazeologik birligi bir-biriga sodiq ikki hamroh do‘stlarni mujassamlashtiradi. Boshqalardan farqli ravishda mazkur frazeologik birlik tarkibida ikkita antroponim ishtirok etib, ma’nosining shakllanishida ulardan Pifiy antroponimi asosiy rol o‘ynaydi, buning sababini esa Damon va Pifiy haqidagi yunon mifologiyasiga asoslangan holda ajratib olingan hamda bir-biriga bog‘liq konseptual komponentlardan iborat quyidagi freym tahlili yordamida izohlash mumkin:




13-rasm. “Damon and Pythias” — frazeologik birligi tarkibidagi antroponimlarning freym tahlili

Pifiyning xatti-harakat konseptual komponentida uning Sirakuza podshosi Dionisiy Iga qarshi fitna uyushtirganligi uchun podsho tomonidan o‘limga mahkum etilishi, podshodan o‘z oilasi bilan vidolashishi uchun bir zum uni qo‘yib yuborishini iltimos qilishi va qaytib

kelishiga va'da berishi aks etadi. Podsho uning do'sti Damonni garovga olish evaziga o'z iltimosini bajarishi uchun unga ruxsat beradi, Pifiy esa borib oilasi bilan vidolashib keladi va o'z va'dasi ustidan chiqadi. Ularning bunday mustahkam do'stligidan hayratlangan podsho esa har ikkisini ham ozod qiladi. Atribut konseptual komponentida esa uning do'sti Damon bilan birgalikda tasvirlanib, mustahkam do'stlik va sadoqat timsollari sifatida gavdalanadi.

Tarkibida tez-tez uchraydigan o'zbek milliy ismlari ishtirok etgan o'zbek tilidagi *Hasan aka quysin, Qo'chqor aka ichsin* frazeologik birligi bir-biridan hech narsani ayamaydigan ulfatlarni, oshna-og'aynilarni nazarda tutadi. Mazkur frazeologik birlikning tarkibida ishtirok etgan *Hasan* hamda *Qo'chqor* antroponimlari bir-biridan hech narsani ayamaydigan oshna-og'aynilarning umumiy obrazini tipiklashtirib, ularning quyidagi konseptual komponentlarini ajratib olamiz: 1) ijtimoiy munosabat — ulfatlar, oshna-og'aynilar; 2) ijtimoiy mavqeyi — oddiy jamiyat vakillari; 3) atributlari — hamjihatlik, totuvlik, sadoqat, hamkorlik, birlik, ahillik. Mazkur konseptual komponentlar jamuljamligi yordamida bir-biridan hech narsani ayamaydigan har qanday ikki oshna-og'aynilarni mujassamlashtirishini anglashimiz mumkin:




14-rasm. “*Hasan aka quysin, Qo'chqor aka ichsin*” — frazeologik birligi tarkibidagi antroponimlarning freym tahlili

Ingliz va o'zbek tillaridagi har ikkala frazeologik birlik ham **Do'stlik** konseptini hosil qilib, bir-biridan hech narsani ayamaydigan, bir-biriga sodiq do'stlar assotsiativ ma'nosini faollashtiradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy ahvol kategoriyasiga mansub antroponimlar sifatida ingliz tilida *Croesus*, *Job* kabilar aniqlandi. Ular ingliz tilida *As rich as Croesus*; *As poor as Job* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o'z ifodasini topdi. O'zbek tilida bunday kategoriyaga mansub misollar aniqlanmadi.

Mazkur kategoriyaga mansub tarkibida tarixiy antroponim ishtirok etgan ingliz tilidagi *As rich as Croesus* frazeologik birligi juda boy, bosartusarini bilmaydigan kishilarni tasvirlab keladi. Mazkur frazeologik birlikning bunday toifadagi kishilarni tasvirlab kelishiga sabab uning tarkibida ishtirok etgan *Croesus* antroponimi bo'lib, u haqdagi ensiklopedik ma'lumotlar yordamida quyidagi konseptual komponentlarga ega bo'lamiz: 1) lavozimi — Lidiya podshohi; 2) faoliyati — otasidan ulkan boylikka ega merosni qabul qilib oladi, birinchi bo'lib sof oltin tangani zarb qildiradi; 3) atributi — yunon va fors madaniyatida uning ismi “badavlat kishi” so'zining sinonimi sifatida ishlatida boshlangan;

4) adabiyot — Jon Gauer, Mett Groening, Devid Cheys, Jon Steynbek kabi adiblar uning ismidan boylik, xazina, mol-dunyo, davlat kabi tushunchalarni ifodalovchi obraz sifatida foydalangan. Mazkur konseptual komponentlar jamuljamligi yordamida *As rich as Croesus* frazeologik birligining badavlat kishi ma'nosi yanada oydinlashadi:




15-rasm. “As rich as Croesus” — frazeologik birligi tarkibidagi antroponimning freym tahlili

Abstraktsiya kategoriyasiga mansub antroponimlar sifatida ingliz tilida *Barmecide*, *Freud*, *Damocles*, *Judas*, *Platon*, *Homer*, *Job*, *Morton*, *Pyrrhus*, *Roland*, *Oliver*, o‘zbek tilida *Ali*, *Bali*, *Layli*, *Majnun* kabilar aniqlandi. Mazkur antroponimlar, ya’ni kishi ismlariga ega shaxs yoki obrazlarning faoliyati, hayoti yoki xarakterli belgisi natijasida zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklar tarkibida kelib, muayyan mavhum tushunchalarni anglatadi hamda ular bilan assotsiatsiyaga kirishadi. Ular ingliz tilida *Barmecide feast*; *A Freudian slip*; *The sword of Damocles*; *A Judas kiss*; *Platonic love*; *Homeric laughter*; *Job’s news*; *Morton’s fork*; *A Pyrrhic victory*; *A Roland for an Oliver*, o‘zbek tilida esa *Aliqa Bali keladi*; *Laylini ko‘rish uchun Majnun*ning ko‘zi kerak kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o‘z ifodasini topdi.


Mazkur kategoriyaga mansub tarkibida tarixiy antroponim ishtirok etgan ingliz tilidagi *Platonic love* frazeologik birligi bir-biridan hech narsani talab qilmaydigan, ikkisiga ziyon yetkazmaydigan sof sevgini anglatadi. Mazkur frazeologik birlikning bunday ma’no anglatishi bevosita uning tarkibida antroponimik komponent sifatida ishtirok etgan *Plato*, ya’ni Aflotunning sof sevgi to‘g‘risidagi g‘oyalari bilan bog‘liq bo‘lib, buning asosida quyidagi konseptual komponentlarga ega bo‘lamiz:

1) faoliyati — qadimgi Yunon faylasufi; 2) asari — “Simpozium” dialog shaklidagi asari; 3) sevgi to‘g‘risidagi g‘oyasi — haqiqiy go‘zallik, komillik, ma’naviy yuksalish; 4) leksikografiya — uning sof sevgi falsafasi *Platonic love* iborasida o‘z aksini topadi. Shunday qilib, mazkur frazeologik birlikning ma’nosi uning tarkibida antroponimik komponent sifatida ishtirok etgan Aflotunning sevgi to‘g‘risidagi g‘oyalari yordamida oydinlashadi:



16-rasm. “Platonic love” — frazeologik birligi tarkibidagi antroponimning freym tahlili

Tarkibida badiiy antroponim ishtirok etgan oʻzbek tilidagi *Laylini koʻrish uchun Majnun*ning koʻzi kerak frazeologik birligi goʻzallik sevgan yorning koʻzida savlat toʻkishini anglatadi. Mazkur frazeologik birlik tarkibida antroponimik komponentlar sifatida ishtirok etgan Layli va Majnun obrazlari turk va fors xalqlarida mashhur besh dostonidan iborat “Xamsa” asarida tasvirlangan hamda komillik bilan bogʻliq yuksak darajadagi ishq namoyandalari sifatida kuylangan boʻlib, ular bilan bogʻliq konseptual komponentlar sifatida haqiqiy goʻzallik, komillik va maʼnaviy yuksalish kabi atributlarini ajratish mumkin:




17-rasm. “Laylini koʻrish uchun Majnun koʻzi kerak” — frazeologik birligi tarkibidagi antroponimlarning freym tahlili

Ingliz va oʻzbek tillaridagi har ikkala frazeologik birlik ham **Muhabbat** konseptini hosil qilib, kishi ongida goʻzallik, komillik va maʼnaviy yuksalish bilan bogʻliq bir-biriga koʻngil qoʻygan juftlik assotsiativ maʼnosini faollashtiradi.

Predmet kategoriyasiga mansub antroponimlar sifatida ingliz tilida *Lucillus, Benjamin, Joe Miller, Fortunatus, Teddy, Joseph, Mary, Susan, Sally Lunn, Aladdin, Annie Oakley*, oʻzbek tilida *Jamshid, Alovuddin* kabilar aniqlandi. Mazkur antroponimlar, yaʼni kishi ismlariga ega shaxs yoki obrazlarning faoliyati, hayoti yoki xarakterli belgisi natijasida zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklar tarkibida kelib, muayyan

predmetlarni anglatadi hamda ular bilan assotsiatsiyaga kirishadi. Ular ingliz tilida *A banquet of Lucullus*; *A Benjamin's portion*; *Joe Miller*; *Fortunatus' purse*; *Teddy bear*; *Joseph's coat*; *Little Mary*; *Lazy Susan*; *Sally Lunn*; *Aladdin's lamp*; *Annie Oakley* o'zbek tilida esa *Bazmi Jamshid*; *Alovuddinning sehrli chirog'i* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda kuzatildi.

Mazkur kategoriyaga mansub tarkibida folklor antroponimi ishtirok etgan ingliz tilidagi *An Aladdin's lamp* hamda o'zbek tilidagi *Alovuddinning sehrli chirog'i* frazeologik birliklari o'z egasining xohish-istaklarini bajo keltiruvchi buyumni anglatadi. Bunday ma'noning hosil bo'lishi mazkur frazeologik birliklarning tarkibida antroponimik komponent sifatida ishtirok etgan Alovuddin obrazining xatti-harakati bilan bog'liq bo'lib, u haqda hikoya qilib bergan Sharq xalqlari og'zaki ijodi yordamida quyidagi konseptual komponentlarni ajratib olamiz: 1) obraz — Sharq xalqlari og'zaki ijodi; 2) xatti-harakati — Jasmin ismli go'zal malikaga ko'ngil qo'yadi, o'zi qamalib qolgan g'ordan sehrli chiroqni topib oladi, mazkur chiroq va uning ichidagi jin tufayli u o'z orzu-istaklariga erishadi; 3) xarakteri — quvnoq, sofdil, botir, uzoqni ko'ra oladigan, ochiqko'ngil. Bunda Alovuddin haqidagi mazkur ertak suriyalik hikoyanavis Hanna Diyab tomonidan so'zlab beriladi. Ushbu hikoya esa tarjimon Antuan Gallan tomonidan "Ming bir kecha" arab ertaklarining bir qismi sifatida yozib olinadi. Mazkur konseptual komponentlar birligini quyidagi freym tahlil orqali kuzatish mumkin:




18-rasm. "An Aladdin's lamp va Alovuddinning sehrli chirog'i" — frazeologik birliklari tarkibidagi antroponimning freym tahlili

Ingliz va o'zbek tillaridagi har ikkala frazeologik birlik ham **Tilak** konseptini hosil qilib, kishi ongida o'z egasining tilaklarini ro'yobga chiqaruvchi buyum assosiativ ma'nosini faollashtiradi.

Artefakt kategoriyasiga mansub antroponimlar sifatida ingliz tilida *Gladstone*, *Bertha*, *The Duke of Exeter* kabilar aniqlandi. Ular ingliz tilida *Gladstone bag*; *Big Bertha*; *The Duke of Exeter's daughter* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o'z aksini topdi. O'zbek tilida esa bunday kategoriyaga mansub misollar aniqlanmadi.


Mazkur kategoriyaga mansub tarkibida tarixiy antroponim ishtirok etgan ingliz tilidagi *Gladstone bag* frazeologik birligi charm sakvoyajni anglatadi. Mazkur frazeologik birlik tarkibida antroponimik komponent sifatida ishtirok etgan Gladston hamda charm sakvoyajni bir-biriga bog'lovchi umumiy jihatini uning doim o'zi bilan birga yuqori qismidan bamisoli kitob singari ochib-yopiladigan, qizil qutuli sumkani ko'tarib yurganligi bilan izohlash mumkin. Shu bilan birgalikda, tarixiy manbalarga asoslangan holda Gladstonning mazkur sumkadan tashqari quyidagi konseptual komponentlarini ajratib olamiz: 1) lavozim — Buyuk Britaniya Bosh vaziri; 2) faoliyat — 60 yil siyosiy faoliyat olib borgan, to'rt marta bosh vazirlikka saylangan, "Gladston liberalizmi" deb atalmish o'z siyosiy doktrinasini ilgari surgan; 3) atribut — o'z tarafdorlari tomonidan *The People's William* (Xalq Vilyami), *Grand Old Man* (Ulug' oqsoqol) sifatida e'zozlangan. Mazkur konseptual komponentlar birligini quyidagi freym tahlil orqali kuzatish mumkin:



19-rasm. "Gladstone bag" — frazeologik birligi tarkibidagi antroponimning freym tahlili

Oziq-ovqat kategoriyasiga mansub antroponimlar sifatida ingliz tilida *Mary*, *Sally Lunn* kabilar aniqlandi. Ular ingliz tilida *A bloody Mary*; *A Sally Lunn* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o'z ifodasini topdi. O'zbek tilida bunday kategoriyaga mansub misollar aniqlanmadi.


Mazkur kategoriyaga mansub tarkibida tarixiy antroponim ishtirok etgan ingliz tilidagi *A Sally Lunn* frazeologik birligi shirin bulochkani anglatadi. Mazkur frazeologik birlik nega aynan shirin bulochkani anglatishini uning tarkibida antroponimik komponent sifatida ishtirok etgan Soli Lun bilan bog'liq tarixiy voqea yordamida bilish mumkin. Bunda biz uchun muhim bo'lgan uning quyidagi konseptual komponentlarini ajratib olamiz: 1) ijtimoiy mavqeyi — fransiyalik qochqin; 2) xatti-harakati — Angliyaning Bat abbatligi tamaddixonasida ish topadi va shu yerda ishlaydi, mazkur tamaddixonaga o'zi tayyorlagan maxsus retsept olib kiradi, shu retsept asosida shirin bulochka tayyorlaydi; 3) ishlagan joyi — Angliyaning Bat abbatligi, Liliput Eli ko'chasi tamaddixona. Mazkur konseptual komponentlar jamuljamligini quyidagi chizmada kuzatish mumkin:



20-rasm. "A Sally Lunn" — frazeologik birligi tarkibidagi antroponimning freym tahlili


Ish-harakat kategoriyasiga mansub antroponimlar sifatida ingliz tilida *Peter, Paul, Philip, Joneses, George, Richard, Melba*, o'zbek tilida *Ali, Bali, Rustam, Jabbor, Eshmat, Toshmat* kabilar aniqlandi. Ular ingliz tilida *Rob Peter to pay Paul; Appeal from Philip drunk to Philip sober; Keep up with the Joneses; Let George do it; Have had the Richard; Do a Melba*, o'zbek tilida esa *Ali desa, Bali demoq; Rustami doston bo'lmoq; Jonini Jabborga bermoq; Eshmatning o'chini Toshmatdan olmoq* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o'z aksini topdi.

Mazkur kategoriyaga mansub tarkibida diniy antroponim ishtirok etgan ingliz tilidagi *Rob Peter to pay Paul* frazeologik birligi bir qarzdin qutulib, boshqasiga duchor bo'lmoq, yomg'irdan qutulib, qorga tutilmoq ma'nosini anglatadi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, 16-asrda Vestminsterdagi avliyo Pyotr cherkovining mol-mulkidan o'n yildan so'ng Londondagi avliyo Pavel cherkovini ta'mirlash maqsadida musodara qilinadi va mazkur hodisa zamonaviy tilshunoslikda biror kimsadan nimadir olib boshqa kishiga bermoq ma'nosini anglatuvchi *Rob Peter to pay Paul* frazeologik birligining shakllanishiga sabab bo'ladi. Bunda mazkur tarixiy voqeaga asoslangan holda xristian dini havoriylari, Vestminsterdagi cherkov, Londondagi cherkov, mol-mulk, musodara, ta'mirlash, leksikografiya singari quyidagi konseptual komponentlarini ajratib olamiz:



21-rasm. “Rob Peter to pay Paul” — frazeologik birligi tarkibidagi antroponimlarning freym tahlili

Tarkibida tez-tez uchraydigan ismlar ishtirok etgan o‘zbek tilidagi *Eshmatning o‘chini Toshmatdan olmoq* frazeologik birligi aybdor chetda qolib, aybsiz kishiga qarshi ish tutmoq ma’nosini anglatadi. Mazkur frazeologik birlik tarkibida ishtirok etgan *Eshmat* antroponimi mug‘ombir, o‘zini olib qochadigan hamda yolg‘onchi kishilarning, *Toshmat* antroponimi soddadil, beayb va rostgo‘y kishilarning umumiy obrazini tipiklashtiradi. Shu bilan birgalikda ularning ajralmas konseptual komponentlari sifatida ijtimoiy mavqeyi hamda millati kabilarni ajratib olishimiz va uni quyidagi chizmada kuzatish mumkin:




2-rasm. “Eshmatning o‘chini Toshmatdan olmoq” — frazeologik birligi tarkibidagi antroponimlarning freym tahlili

Ingliz va o‘zbek tillaridagi har ikkala frazeologik birlik ham **Xatti-harakat** konseptini hosil qilib, kishi ongida muayyan kishining birini tinch qo‘yib, boshqasini bezovta qilish singari xatti-harakatini assotsiatsiyalashtiradi.


Makon kategoriyasiga mansub antroponimlar sifatida ingliz tilida *Aladdin*, *Tom Tiddler*, *Robin Hood*, *Davy Jones*, *Abraham*, o‘zbek tilida *Xorun*, *Jamshid* kabilar aniqlandi. Ular ingliz tilida *An Aladdin’s cave*; *Tom Tiddler’s ground*; *Round Robin Hood’s barn*; *Davy Jones’ locker*; *In Abraham’s bosom*, o‘zbek tilida esa *Mirzai azimda ming Xorunning xazinas* — *yu, tuman Jamshidning davlati bor* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o‘z ifodasini topdi.

Mazkur kategoriyaga mansub tarkibida folklor antroponimi ishtirok etgan ingliz tilidagi *An Aladdin’s cave* frazeologik birligi qimmatbaho buyumlarga to‘la joyni anglatadi. Bunday ma’noning hosil bo‘lishi mazkur frazeologik birlikning tarkibida antroponimik komponent sifatida ishtirok etgan Alovuddin obrazining o‘zi qamalib qolgan hamda oltin va kumush buyumlar to‘lib-toshgan g‘ori bilan bog‘liq bo‘lib, uning konseptual komponentlari *An Aladdin’s lamp* hamda *Alovuddin’s sehrli chirog‘i* frazeologik birliklari bilan bir xil bo‘lib, bunda diqqat g‘ordagi oltin-kumushga qaratiladi. Buni quyidagi freym tahlilida kuzatish mumkin:



23-rasm. “*An Aladdin's cave*” — frazeologik birligi tarkibidagi antroponimning freym tahlili

Tarkibida tarixiy hamda mifologik antroponimlar ishtirok etgan o‘zbek tilidagi *Mirzayi azimda ming Xorunning xazinasi-yu, tuman Jamshidning davlati bor* frazeologik birligi ulkan boylik va xazinaga ega joyni anglatadi. Bunday ma’noning hosil bo‘lishini uning tarkibida antroponimik komponentlar sifatida ishtirok etgan afsonaviy Jamshid hamda tarixiy Xorun podsholarning bitmas-tuganmas xazinasi bilan izohlash mumkin. Ensiklopedik ma’lumotlar asosida har ikkala podshoning bitmas-tuganmas boyligiga asoslangan holda ularni quyidagi konseptual komponentlarga ajratib olishimiz mumkin, shu jumladan, afsonaviy podsho Jamshid: 1) lavozimi — peshdodiylar sulolasining buyuk hukmdori; 2) faoliyati — sharob va oynani ixtiro qilgan, davlat tuzumi tashkil etib, aholini tabaqalarga bo‘lgan; 3) davlati — shon-u shavkat va saltanatga ega bo‘lgan, hamda tarixiy podsho Xorun: 1) lavozimi — abbosiylar sulolasining beshinchi xalifasi; 2) faoliyati — uning hukmronlik davri islom oltin davrining boshlanishi bilan belgilanadi, Bayt ul-hikma kutubxonasini tashkil qilgan; 3) davlati — uning saroyi turli sovg‘a-salomlar, oltin-u kumushga to‘lib-toshardi. Mazkur konseptual komponentlarning umumlashmasini quyidagi freym tahlilida kuzatish mumkin:




24-rasm. “Mirzayi azimda ming Xorunning xazinasi-yu, tuman Jamshidning davlati bor” — frazeologik birligi tarkibidagi antroponimlarning freym tahlili

Ingliz va o‘zbek tillaridagi har ikkala frazeologik birlik ham **Xazina** konseptini hosil qilib, kishi ongida oltin-u kumush, bitmas-tuganmas boylik to‘lib-toshgan joy assotsiativ ma’nosini faollashtiradi.

Zamon kategoriyasiga mansub antroponimlar sifatida ingliz tilida *Adam, Methuselah, Saint Bartholomew, Jack Robinson, Saint Paul*, o‘zbek tilida *Daqqiyunus, Odam Ato, Amir Temur, Ayamajuz* kabilar aniqlandi. Ular ingliz tilida *Since Adam was a boy; As old as Methuselah; Saint Bartholomew’s Day Massacre; Before you can say Jack Robinson; If Saint Paul’s day be fair and clear, it will betide a happy year*, o‘zbek tilida esa *Daqqiyunusdan qolgan; Odam Atodan qolgan; Amir Temurdan qolgan; Ayamajuz — olti kun, qahr aylasa qattiq kun* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o‘z ifodasini topdi.

Mazkur kategoriyaga mansub tarkibida diniy antroponim ishtirok etgan ingliz tilidagi *Since Adam was a boy* hamda o‘zbek tilidagi *Odam Atodan qolgan* frazeologik birliklari qadimiy, juda eski, qadim zamonlardan beri ma’nolarini anglatadi. Mazkur frazeologik birlik tarkibida antroponimik komponent sifatida ishtirok etgan Odam Ato haqidagi rivoyat bizga diniy manbalardan ma’lum. Mazkur diniy rivoyat asosida biz Odam Atoning quyidagi konseptual komponentlarini ajratib olamiz: 1) vaqt — dunyo yaralganidan 6-kuni Odam Ato dunyoga keladi; 2) ijtimoiy mavqeyi — yer yuzidagi birinchi odam; 3) xatti-harakati — Eden bog‘ida taqiqlangan daraxtdan olma yegani uchun jannatdan haydalgan; 4) rivoyat — islom dini, xristianlik dini, yahudiylilik dini. Mazkur frazeologik birlikning ma’nosi uning tarkibida ishtirok etgan Odam Atoning dunyoga kelgan vaqti bilan bog‘liq ekanligi quyidagi konseptual komponentlar orqali oydinlashadi:



25-rasm. “Since Adam was a boy hamda Odam Atodan qolgan” — frazeologik birliklari tarkibidagi antroponimning freym tahlili

Mazkur kategoriyalarga mansub antroponimlar ishtirok etgan misollardan ko‘rinib turganidek, mazkur frazeologik birliklarning ma‘nosi o‘z tarkibida ishtirok etgan antroponimlarning sezilarli iz qoldirgan makoni yoki yashagan zamoni bilan bog‘liq holda assotsiatsiyaga kirishadi.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ingliz va o‘zbek tillari frazeologik birliklari tarkibida onomastik komponent sifatida ishtirok etgan antroponimlar muayyan assotsiativ ma‘nolarga ega bo‘lib, inson ongida kishining bevosita xulq-atvori, aqliy salohiyati, qobiliyati, ruhiyati, his-tuyg‘ulari, tashqi ko‘rinishi, faoliyati, ijtimoiy munosabati, ijtimoiy mavqeyi, shu bilan birgalikda artefakt, predmet, mavhum tushunchalar, xatti-harakat, makon hamda zamon to‘g‘risida muayyan konseptlarni hosil qiladi. Bunda mazkur konseptlar frazeologik birliklar tarkibida ishtirok etgan antroponimlar haqidagi ensiklopedik axborotga asoslanib, antroponimlarning, ya‘ni kishining atoqli otlariga ega insonlarning xulq-atvori, yurish-turishi, aqliy salohiyati, muayyan sohadagi faoliyati ta‘siri natijasida shakllanadi. Ingliz va o‘zbek tillarida antroponimik komponentli frazeologik birliklarning ma‘nosi o‘z-o‘zidan shakllanmagan, balki bevosita ularning tarkibida ishtirok etgan antroponimlarning ta‘siri natijasida yuzaga kelganligi tahlillar natijasida aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Ashurova D., Galiyeva M. Cognitive linguistics. — Tashkent: VneshInvestProm, 2018. — 160 p.
 Cocchiarella N.B. Formal ontology and conceptual realism. — Dordrecht: Springer, 2007. — 332 p.
 Efimova N.N., Violina M.I. Linguosemiotic aspects of idiomatics: vectors of cognitive modelling and didactic perspectives // Perspectives of Science and Education. — 2022. — № 4 (58). — P. 266–280.

- Khudoyorova S.T. Semantic and etymological classification of English and Uzbek phraseological units with personal names // Theoretical and Applied Science: Philadelphia. — 2020. — №7 (87). — 227–230 p.
- Kun N.A. Qadimgi yunon afsona va rivoyatlari. — Samarqand: Zarafshon, 2005. — 250 b.
- Lopez A.M.R. Applying Frame Semantics to Translation: A Practical Example // Meta: Translator's Journal. — 2002. — № 3. — 311–350 p.
- Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. — Jizzax: Sangzor nashriyoti, 2006. — 92 b.
- Xudoyberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati (The explanatory dictionary of contemporary linguistic terms). — Toshkent: Bookmany print, 2024. — 112 b.
- Ying H., Yan S. English Idioms Interpretation in Perspective of Cognitive Semantics // US-China Foreign Language. — 2020. — №18 (3). — 88–91 p.
- Абакумова О.Б. Пословичные концепты в паремическом дискурсе (Proverbial concepts in paremic discourse): Автореф. дисс. доктора филол. наук. — Орел, 2013. — 46 с.
- Герас Ю.А. Английские лексико-фразеологические поля эпистемических и интенциональных состояний в лингвокогнитивном и лингвоконцептологическом аспектах (English lexical and phraseological fields of epistemic and intentional states in linguocognitive and linguoconceptological aspects): Автореф. дисс. канд. филол. наук. — Самара, 2009. — 26 с.
- Голубаева Ю.В. Репрезентация фрейма «жестикуляция» английскими глаголами и глагольными сочетаниями (Representation of the “Gesticulation” frame by English verbs and verb combinations): Автореф. дисс. канд. филол. наук. — Белгород, 2006. — 24 с.
- Голубаева Ю.В., Трубаева Е.И., Перельгина Т.А. Прямая и метафорическая репрезентация концепта-фрейма «Кинесика» английскими глаголами и глагольными сочетаниями (Direct and metaphoric representation of the concept-frame “Kinesics” by English verbs and verb combinations) // Гуманитарные и социальные науки. — 2020. — №2. — С. 146–154.
- Иванова Е.В. Пословичная концептуализация мира (на материале английских и русских пословиц) (The proverbial conceptualization of the world): Автореф. дисс. доктора филол. наук. — Санкт-Петербург, 2003. — 38 с.
- Коновалова Ю.С. Фразеологизмы, паремии и афоризмы как средство объективации возрастных концептов в англо-американской языковой картине мира (Phraseological units, paroemias and aphorisms as a means of objectification of age concepts in the Anglo-American linguistic worldview): Автореф. дисс. канд. филол. наук. — Воронеж, 2012. — 24 с.
- Оботнина Е.В. Функционально-когнитивное описание актуализации внутренней формы английских фразеологических единиц в переводе (Functional and cognitive description of the actualization of the internal form of English phraseological units in translation): Автореф. дисс. канд. филол. наук. — Уфа, 2006. — 28 с.
- Рыжкина Е.В. Фразеологическая окказиональность в английском языке: когнитивно-коммуникативные аспекты (Phraseological

occasionalism in English: cognitive and communicative aspects): Автореф. дисс. канд. филол. наук. — М., 2003. — 27 с.

Сафина З.М. Когнитивно-лексикографическое описание фразеологических единиц со структурно-семантическим компонентом цвета (на материале английского, русского и башкирского языков) (Cognitive-lexicographic description of phraseological units with structural-semantic component of colour): Автореф. дисс. канд. филол. наук. — Уфа, 2004. — 23 с.

Томберг О.Г., Ананьина М.А. Фреймовая структура аллюзивного антропонима как художественного концепта (на материале романа Донны Тартт «Тайная история») (Frame structure of allusive anthroponym as a literary concept) // Филологические науки. Вопросы теории и практики. — 2024. — №2 (17). — С. 564–572.

Туарменская А.В. Когнитивные аспекты восприятия и категоризации пространственного опыта (на материале английских фразеологизмов со словами, обозначающими части тела человека) (Cognitive aspects of perception and categorization of spatial experience): Автореф. дисс. канд. филол. наук. — М., 2006. — 25 с.

Филичкина Т.П. Деонтические нормы в семантике фразеологических единиц русского и английского языков (на материале глагольных фразеологизмов, содержащих наименования головных уборов) (Deontic norms in the semantics of phraseological units of the Russian and English languages): Автореф. дисс. канд. филол. наук. — Орел, 2006. — 25 с.

References

Abakumova, O.B. (2013). *Poslovichniye konsepty v paremicheskom diskurse* (Proverbial concepts in paremic discourse): Extended abstract of doctor's thesis, Orel, 46 p.

Ashurova, D., Galiyeva, M. (2018). *Cognitive linguistics*. Tashkent: VneshInvest Prom.

Cocchiarella, N.B. (2007). *Formal ontology and conceptual realism*. Dordrecht: Springer.

Efimova, N.N., Violina M.I. (2022). *Perspectives of Science and Education*, No. 4 (58), 266–280 p.

Filichkina, T.P. (2006). *Deonticheskiye normy v semantike frazeologicheskix yedinits russkogo i angliyskogo yazykov* (Deontic norms in the semantics of phraseological units of the Russian and English languages): Extended abstract of candidate's thesis, Orel, 25 p.

Geras, Yu.A. (2009). *Angliyskiye leksiko-frazeologicheskiye polya epistemicheskix i intensionalnix sostoyaniy v lingvokognitivnom i lingvokonseptologicheskom aspektax* (English lexical and phraseological fields of epistemic and intentional states in linguocognitive and linguoconceptological aspects): Extended abstract of candidate's thesis, Samara, 26 p.

Golubayeva, Y.V., Trubayeva, Ye.I & Perelygina, T.A. (2020). *Pryamaya i metaforicheskaya reprezentatsiya konsepta-freyma "Kinesika" angliyskimi glagolami i glagolnimi sochetaniyami* (Direct and metaphoric representation of the concept-frame "Kinesics" by English verbs and verb combinations). *Gumanitarniye i sotsialniye nauki*, issue 2, p. 146–154.

- Golubayeva, Yu.V. (2006). *Reprezentatsiya freyma "jestikulyatsiya" angliyskimi glagolami i glagolnimi sochetaniyami* (Representation of the Gesticulation frame by English verbs and verb combinations): Extended abstract of candidate's thesis, Belgorod, 24 p.
- Ivanova, Ye.V. (2003). *Poslovichnaya konseptualizatsiya mira* (The proverbial conceptualization of the world): Extended abstract of doctor's thesis, Saint Petersburg.
- Khudoyberganova, D. (2024). *Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lugati* (The explanatory dictionary of contemporary linguistic terms), Tashkent: Bookmany print.
- Khudoyorova, S.T. (2020). *Theoretical and Applied Science*: Philadelphia, issue No. 7(87), 227–230.
- Konovalova, Yu.S. (2012). *Frazeologizmy, paremii i aforizmi kak sredstvo obyektivatsii vozrastnix konseptov v anglo-amerikanskoy yazykovoy kartine mira* ((Phraseological units, paroemias and aphorisms as a means of objectification of age concepts in the Anglo-American linguistic worldview): Extended abstract of candidate's thesis, Voronej.
- Kun, N.A. (2005). *Kadimgi yunon afsona va rivoyatlari* (Legends and myths of the ancient Greek) / translated from Russian by Poshali Usmon and Fazliddin Shukur, Samarkand: Zarafshon.
- Lopez, A.M.R. (2002). *Meta: Translator's Journal*, No 3, 311–350 p.
- Obotnina, Ye.V. (2006). *Funksionalno-kognitivnoye opisaniye aktualizatsii vnutrenney formy angliyskix frazeologicheskix yedinit v perevode* (Functional and cognitive description of the actualization of the internal form of English phraseological units in translation): Extended abstract of candidate's thesis, Ufa.
- Ridjkina, Ye.V. (2003). *Frazeologicheskaya okkazionalnost v angliyskom yazyke: kognitivno-kommunikativniye aspekty* (Phraseological occasionalism in English: cognitive and communicative aspects): Extended abstract of candidate's thesis, Moscow.
- Safarov, Sh. (2006). *Kognitiv tilshunoslik* (Cognitive linguistics), Jizzakh: Sangzor.
- Safina, Z.M. (2004). *Kognitivno-leksikograficheskoye opisaniye frazeologicheskix yedinit so strukturno-semanticheskim komponentom sveta* (Cognitive-lexicographic description of phraseological units with structural-semantic component of colour): Extended abstract of candidate's thesis, Ufa.
- Tomberg, O.G., Ananyina, M.A. (2024). *Freymovaya struktura allyuzivnogo antroponima kak xudojestvennogo konsepta* (Frame structure of allusive anthroponym as a literary concept). *Filologicheskkiye nauki. Voprosy teorii i praktiki*, issue 2(17), p. 564–572.
- Tuarmenskaya, A.V. (2006). *Kognitivniye aspekty vospriyatiya i kategorizatsii prostranstvennogo opita* (Cognitive aspects of perception and categorization of spatial experience): Extended abstract of candidate's thesis, Moscow.
- Ying, H. & Yan, S. (2020), *US-China Foreign Language*, No. 18(3), 88-91 p.